

BOLALARNING MUSIQIY MADANIYATINI XALQ AN'ANALARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Ibroximova Gulnoza Sa'dullayevna

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10352550>

Annotatsiya. Ushbu maqola bolalarning musiqiy madaniyatini rivojlantirishda xalq an'alaridan foydalanish mexanizmlarini muhokama etishga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: Musiqiy faoliyat, qo'shiq, aktyorlar, xonanda, ta'lim- tarbiya, musiqa, bolalar, uslub.

DEVELOPMENT OF CHILDREN'S MUSICAL CULTURE ON THE BASIS OF FOLK TRADITIONS

Abstract. This article is devoted to discussing the mechanisms of using folk traditions in the development of children's musical culture.

Key words: Musical activity, song, actors, singer, education, music, children, style.

РАЗВИТИЕ ДЕТСКОЙ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ НА ОСНОВЕ НАРОДНЫХ ТРАДИЦИЙ

Аннотация. Данная статья посвящена обсуждению механизмов использования народных традиций в развитии детской музыкальной культуры.

Ключевые слова: Музыкальная деятельность, песня, артисты, певцы, образование, музыка, дети, стиль.

KIRISH

Har qanday jamiyatda yosh avlod tarbiyasi davlat oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan. Chunki, jamiyatning jamiyat sifatida ravnaq topishi va rivojlanishi ana shu kelajak avlodi tarbiyasiga bog'liq. Ma'lumki, tarbiya shaxsni jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy ishlab chiqarish munosabatlariga tayyorlash, shuningdek, uning ma'naviy, aqliy, jismoniy va musiqiy rivojlanishiga muntazam ta'sir etib boruvchi o'zluksiz jarayon. Endilikdagi asosiy vazifa ana shu yoshlarga ta'lim va tarbiya berish, o'larning kuch va sadoqatini ana shu Vatanga muhabbat, yurt tinchligi va osobyishtaligi, respublika mustaqilligini mustahkamlash yulida safarbar etishdir. Buni dunyoning ko'pgina davlatlari qatori O'zbekiston Respublikasi hukumatining olib borayotgan odilona siyosati natijasida amalga oshirilayotgan keng ishlar ko'lamida payqash qiyin emas.

ASOSIY QISM

Xalq an'analari tarkibidagi musiqiy yo'nalishlarning quyidagi turlari maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yuqori ta'sirchanlikka ega:

DOSTON IJROCHILIGI

Dostonchilik san'ati — xalq og'zaki poetik ijodidagi qadimiy epik an'ana, nomoddiy madaniy merosning eng yorqin namunalaridan biri. Dastlab qo'shiq shaklidagi, musiqa cholg'usiz, keyinchalik ma'lum bir musiqa (do'mbira, qo'biz va hokazo) ijrosida marosimlarda kuylanadigan asarlar yaratilgan.

Dostonchilikning qadimiy namunalari ibtidoiy davrlarda turkiy qabilalar orasida vujudga kelgan. Epik dostonlarni yaratuvchi va kuylovchi badihago'ylar ko'payib borgan sari ustozshogirdlik an'analari vujudga kela boshladi. Natijada XV–XVI asrlarga kelib ko'pgina dostonchilik maktablari paydo bo'ldi, XIX asrga kelib yanada taraqqiy etdi. Bugungi kunga qadar

Bulung'ur, Narpay, Qo'rg'on, Xorazm, Shahrisabz, Sherobod, Qoraqalpoq kabi yirik dostonchilik maktablaridan tashqari, Qamay, Piskent, kabi boshqa markazlar ham ma'lum. Ular repertuarlari, uslubi, ma'lum ijod tamoyili va ijro usullariga ko'ra bir-biridan ajralib turadi. Har bir maktab u yoki bu baxshining nomi va faoliyati bilan bilan chambarchas bog'liq. Misol uchun, Qo'rg'on dostonchiligi Ergash Jumanbulbul, Bulung'ur dostonchiligi Fozil Yo'ldosh o'g'li, Narpay dostonchiligi Islom Nazar o'g'li, Shahrisabz dostonchiligi Abdulla Nurali o'g'lining faoliyati bilan bog'liq.

DUTOR VA SURNAY MAQOM YO'LLARI

Dutor (forscha — ikki tor) — torli chertim musiqa cholg'usi, Markaziy Osiyo xalq (o'zbek, tojik, uyg'ur, turkman, qoraqalpoq)lari madaniyatida keng tarqalgan. Xorazmda dutor maqom turkumlari XIX–XX asrlarda keng tarqalgan bo'lib, “Xorazm tanbur chizig'i”da oltita dutor maqomi — Zihiy Nazzora-Urganjiy, Miskin, Rahoviy, Iroqiy, Oxyor, Choki Giribonlar va ularning turkum (2 tadan to 7 tagacha) qismlari yozib olingan. Har bir maqom turkumi o'ziga xos kuyi, shakli, usullari, kuy rivoji va ijro uslublari bilan ajralib turadi. Namoyandalari — T. Alimatov, F. Sodiqov, Q. Madraimov, N. Boltaev, Madraim Sheroziy, A. Hamidov, M. Ziyoeva va boshqalar.

Surnay — puflama-damli musiqa cholg'usi, Yaqin va O'rta Sharq xalqlari madaniyatida keng tarqalgan (surnay, karnay, zurna va h.k.). O'zbekistonda surnay, metar nomlari bilan hamma hududlarda uchraydi. Surnayning ikki turi tarqalgan — Farg'ona–Toshkent (menzurasi kengroq, tovushi mayin va nolali) va Xorazm (menzurasi nisbatan torligidan tovushi keskin va chiyildoq).

KAMER CHOLG'U ANSAMBLLARI

Unison ijrochiligi an'anaviy o'zbek musiqa madaniyatiga xos bo'lib doimiy ravishda jo'rnavezlikda qo'llanib kelingan va qo'llanilmoqda. Kamer cholg'u ansambllari undagi ishtirok etadigan cholg'u turlariga ko'ra 3 turga bo'linadi:

- bir xil cholg'ulardan tashkil topgan ansambl;
- turdosh cholg'ular ansambli;
- aralash ansambl.

O'zbek an'anaviy cholg'u ijrochiligida turli xil cholg'ularni o'z ichiga olgan aralash ansambllar juda keng tarqalgan bo'lib xilma-xil tarkibdagi ko'rinishlarda uchraydi.

Har tomonlama mukammal aralash unison ansambl tashkil etish uchun jamoa tarkibiga turlicha tovush hosil qilish uslubi va turlicha tovush tembriga ega bo'lgan cholg'ular kiritiladi. Bunda, puflab chalinadigan cholg'ulardan nay (yoki qo'shnay), mezrobli cholg'ular guruhidan qashqar rubobi, tanbur va afg'on rubobi (yoki ud), chertma torli cholg'ulardan an'anaviy dutor, urma zarbli cholg'ulardan doira, urma jarangli torli cholg'ulardan chang (yoki tirnama cholg'ulardan qonun), kamonli cholg'ulardan g'ijjak ishtirokidagi ansambl milliy ruhdagi musiqani har tomonlama ifodalay olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

LAPAR

Xalq ijodiyotining qadimiy janrlaridan biri bo'lgan lapar ijrochiligi san'ati o'zining boy tarixiga ega. Lapar qo'shiqlari taniqli san'atkorlar tomonidan bayramlar, xalq sayillari va nikoh to'ylarida, kechqurun qizning uyida o'tkaziladigan “Qiz oqshomi”, “Qizlar bazmi”, “Lapar kechasi” deb ataluvchi bazmlarda ijro etiladi. Qizlar bilan yigitlar tarafma-taraf turib, oshiqona

g'azal-baytlar aytadilar, bir-birlariga muhabbat izhor etib, ahdu paymon qilishgan, sovg'alar berishgan.

Dastlabki davrlarda erkak va ayol ijrochi ishtirok etgan qadimiy laparlar o'ziga xos musobaqa jarayoni ko'rinishida bo'lgan va bunday ko'rinishdagi mustaqil janrlar hozirgacha turli xalqlarda saqlanib qolgan.

Barcha janrlarda bo'lganidek, laparlarda ham o'zgarish ro'y berib, sekin asta undagi ikki jinsning ishtiroki yo'qoldi va faqat ayol ijrochi tomonidan raqsga tushib ijro etiladigan ko'rinishga kelib qoldi. Bundan tashqari, undagi improvizatsiya uslubi o'z o'rnini ijrochilar tomonidan oldindan tayyorlangan xalq termalariga bo'shatib bergan bo'lsa, keyinchalik laparlar maxsus bastakorlar va shoirlar tomonidan yaratiladigan musiqiy janrga aylandi.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa o'rnida, barkamol avlodni musiqa orqali tarbiyalashda kuyidagi asosiy tamoyillarni ilgari so'rishni tavsiya etamiz:

1. O'quvchi-yoshlarning badiiy didini milliy kuy-qo'shiqlar asosida o'stirish tamoyili. Mazkur tamoyilning asosiy vazifasi asosan o'quvchi- yoshlarning badiiy-musiqiy didini o'stirishdan iborat. Bunda asosan qoraqalpoq musiqiy merosi qatlamlarida mavjud halq qushiqlari va milliy cholg'u kuylaridan keng foydalanish tavsiya etiladi.

O'quvchi-yoshlarning eshituvchanlik qobiliyatini o'stirish tamoyili. Mazkur tamoyil bugungi kunda o'ta muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sir emaski, g'arb mamlakatlaridan «ommaviy madaniyat» degan tushuncha jadal sur'atda butun Sharq mamlakatlari madaniyatiga ta'sir qilmoqda. Bu holat O'zbekistonni ham chetlab o'tgani yo'q.

2. Ommaviy madaniyatning yoshlarga singdirilishida musiqa asosiy vosita hisoblanadi. Shuning uchun yoshlarga ta'lim va tarbiyaviy ahamiyatga ega milliykuy-qo'shiqlarni eshittirish va uni kuylash yo'l-yo'riklarini o'rgatish ancha samara beradi. Demak, barkamol avlodni tarbiyalashda musiqa eshitish tarbiyasini to'g'ri tashkil etish muhim.

3. O'quvchi-yoshlar tarbiyasida milliy, umuminsoniy g'oyalarni o'zida mujassam etgan, Ona-Vatanga muhabbat va sadoqat ruhiyati kasb etgan kuy-qo'shiqlarni o'rgatish va ularni dasturlarning asosiy qismi sifatida qarash tamoyili.

REFERENCES

1. Ishmuxamedov R.J., M.Yuldashev Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.- T.: "Nihol" nashriyoti, 2013, 2016.-279b.
2. Norenkov I.P., Zimin A.M. Ta'limda innovatsion texnologiyalar: Darslik.-M.: Ad. MSTU im. N. Bauman, 2012.-336s.
3. Sergeev I.S. Pedagogik faoliyat asoslari: Darslik. 2019
4. Liviev A.X. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik. –T.: Mehnat, 2001.
5. Sharipova G. Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa o'qitish metodikasi. «Cho'lpon» T.: 2007.
6. Tursunova X.Qo'shiqlar sehri. – T.:Muharrir,2012.
7. Juraevna, G. D. (2022). Psychological views on the role of parents in raising children in the family. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(10), 143-

- 147.
8. Juraevna, D. G. (2022). Preparing young boys and girls for family life. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(6), 1513-1517.
 9. Juraevna, G. D. (2021). Prevention of divorce by preparing young people for family life. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(12), 398-401.
 10. GAFFOROVA, D. (2023). Provoking factors of family breakdown in modern society. *Transnational Journal of Medicine & Health*, 2(10), 3-5.
 11. GAFFOROVA, D. (2023). Psychoprophylaxis of monthly conflict generating disagreements in modern society. *Young Scholar's Academic Journal*, 2(7), 5-7.
 12. Ganiyeva, M. (2023). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MATEMATIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA MURAKKAB MASALALARNING AHAMIYATI. *Scienceweb academic papers collection*.
 13. Ganiyeva, M. (2023). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining darslarda o'quvchilarning mantiqiy fikrlarini o'stirish metodikasi. *Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy habarlari*.
 14. Ganiyeva, M. (2023). Mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda TRIZ ning imkoniyatlari. *Scienceweb academic papers collection*.
 15. Ganiyeva, M. (2023). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MANTIQUIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. TA'LIM FIDOYILARI.